

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**BUXORO  
DAVLAT  
UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**

**BuxDU rektori  
O.X.Xamidov**

**avgust 2023 y.**

**“YANGI O‘ZBEK ADABIYOTI”  
FANINING O‘QUV DASTURI**

**Bilim sohasi: 200000 – San`at va gumanitar soha**  
**Ta`lim sohasi: 230000 – Tillar**  
**Ta`lim yo`nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili)**

**BUXORO - 2023**

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
YO'ATI316	2025-2026	6	5	
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari – 4		
Tanlov	O'zbek			
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim (90 soat)	Jami yuklama (150 soat)	
	Ma'ruza - 20, Seminar - 20 Amaliy - 20			
Yangi o'zbek adabiyoti	60	90	150	
<p><b>2.</b></p> <p><b>I. Fanning mazmuni - "Yangi o'zbek adabiyoti"</b> fani adabiyotning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'tmi, adabiyotning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati, tabiiy va ijtimoiy fanlar va san'atning boshqa turlaridan farqi, adabiy turlar va janrlar, ijodkorlarning o'ziga xos uslubli kabllar to'g'risida ma'lumot beradi.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Alisber Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonida ta'kidlanganidek, har bir xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o'zligining, madaniy-ma'rifiy olami, milliy g'oyasining asosi hisoblanadi. Ona tili va adabiyotimiz xalqimizning milliy ruhi va o'zligining asosi ekanini hisobga olgan holda, ta'lim-tarbiya tizimida yoshlarning madaniy-ma'rifiy saviyasini oshirish, ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalash maqsadida o'zbek adabiyoti namunalari ilmiy-estetik asosda o'rganish dolzarb muammodir<sup>2</sup>.</p> <p>"Yangi o'zbek adabiyoti" fanning ahamiyati ijtimoiy hayot va adabiyotni tushunish, badiiy asarlarning badiiy-estetik darajasini aniqlash, adabiy qabranon va real hayot kishisi o'rtasidagi farqlarni ajratish kabllar bilan belgilanadi.</p> <p>Talabalar bu fanni o'rganish orqali yangi o'zbek adabiyoti namunalari foydali, yaratgan asarlari, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiy tur va janrlar, adabiyot va ijtimoiy hayot, ijodiy uslublar, ijodkor uslub, badiiy obraz, adabiy qabranon, badiiy san'atlar kabllar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi.</p> <p>Mazkur fan falsafa, tarix, etika va estetika, san'atshunoslik yo'nalishidagi fanlar bilan uzviy bog'langan.</p> <p>Mazkur fanni o'qitishning asosiy maqsadi – badiiy asarni tahlil qilish uchun yo'llanma berish, badiiy matni turli metodlar asosida har tomonlama ilmiy-</p>				

<sup>2</sup> Узебекистон Республикаси Президентини И.А.Каримовнинг Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисидаги Фармони. – Тошкент, 2016 йил 13 май

<p>estetik tahlil qilish, jahon adabiyotshunosligidagi metodlarni adabiy tur hamda janrlar bo'yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o'rganish, umuman, adabiyotshunosning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushu fanning asosiy maqsadi sanaladi.</p> <p>– <b>Fanning vazifasi</b> – "Yangi o'zbek adabiyoti" fanning adabiyotshunoslik tarixi, zamonaviy adabiyotshunoslik orasidagi bog'lanishni tushuntirish;</p> <p>– XX asr adabiyoti namunalari o'rganish va tahlil qilish;</p> <p>– badiiy asarni ilmiy-estetik tahlil qilish, matni tarkibiy qismlarga ajratish va ulaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;</p> <p>– badiiy asarlarni turli metodlar asosida tahlil qilishni tushuntirish;</p> <p>– adabiyotshunoslik tarkibiy qismlari orasidagi bog'liqlikni ko'rsatish;</p> <p>– o'zbek adabiyotshunoslarining maqola, taqrizlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish;</p> <p>– talabaga san'at asarlarini his qilishni o'rgatish.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Yangi o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari</b></p> <p>Yangi o'zbek adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, yetakshi belgilari. Yangi o'zbek adabiyotini davrlashtirish. Yangi o'zbek adabiyoti taraqqiyotining asosiy bosqichlari. M a'rifaparvarlik yoki jaded adabiyoti. Yangi o'zbek adabiyotining realizm bosqishi (1916-1932 yillar. Birinshi bosqishi (1932-1954 yillar). Ikkinchi bosqishi (1954-1991 yillar). Milliy istiqlol davri o'zbek adabiyoti. XX asr adabiyoti tarixiga oid bahs-munozaralar.</p> <p><b>2-mavzu. Yangi o'zbek adabiyoti taraqqiyotining asosiy bosqichlari.</b></p> <p>Yangi o'zbek adabiyotining dastlabki bosqichiga xos xususiyatlar. O'zbek adabiyotining ilk davrida Yevropa va rus madaniyatlari ta'sirida shakllanganligi, o'zaro bayon, usmonli va tatar singari turkiy xalqlar badiiy ijodidan ko'proq o'zlanganligi, g'oyalari, mavzulari, janrlari dolirasi rang-baranglashganligi. M a'rifaparvarlik adabiyoti. Yangi o'zbek adabiyotining shakllanish davrida ilohiyotdan dunyo'viylik tomon burilish. Yangi o'zbek adabiyotidagi jadidchilik bosqichi. Yangi o'zbek adabiyotida ko'zga tashlangan 1917-yil inqilobiga umid. Yangi o'zbek adabiyotida tasvir uslub va ijodiy metod vujudga kelganligi.</p> <p>"Ijodiy metod" atamasi XX asrning 20-yillarida adabiyotshunoslikka olib kiritilganligi. Ijodiy metod - voqeelikni aks ettirish tamoyillari, yozuvchining hayotga yondashuvi, tushunish qayisi tomonlariga ko'proq e'tibor qaratishi va tasviriyo vositalardan qay darajada yoki yo'sinda foydalanishi. Realistik metodning tug'ilishi birinchi romanning vujudga kelishi bilan bog'liqligi. Realistik metodning bosh maqsadi insoniyatning haqiqat va adolat tuyg'ularini, ularning g'alabasi yo'lidagi kurashlari manzaralarini nihoyatda go'zal, ta'sirchan, ishonarli shaklda</p>
--

ifodalashdan iboratdir. Realistik metodning eng muhim xususiyatlari.

### 3-mavzu. Gʻafur Gʻulom, Oybek ijodining oʻziga xosligi

Gʻafur Gʻulom Sharq adabiyotining chuqur bilimdoni. Shoirning dastlabki ijodi. Adibning hikoya va qissalari. 30-yillarda xalq va davr hayotini aks ettirgan asarlari. Shoir dostonlari. Toʻrt yillik urush davri shoir uchun shiddatli ijod bosqichi. Gʻafur Gʻulomning adabiyotshunoslik faoliyati. Oybek ijodi tanqidchilik nigohida. Shoirning 30-yillardagi ijodi. Oybek dostonlari. “Naʼmatak” sheʼrida koʻtarilgan falsafiy fikrlar. Oybekning urush davri ijodi. Adibning nasriy asarlari. Oybek romanlari. “Qulugʻ qon” romanida davr fojiasining tasvirlanishi. Oybekning adabiyotshunoslik faoliyati. Adabiyotshunoslik Oybek ijodi haqida.

### 4-mavzu. Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor ijodi

Hamid Olimjon XX asr oʻzbek sheʼriyatining yorqin yulduzlaridan biri ekanligi. Shoir sheʼrlarida xalqchil ohang va ruh kash etishining sabablari. 30-yillarda oʻzbek mumtoz adabiyoti va xalq ogʻzaki ijodini tadqiq etishga qoʻshgan hisssasi. “Oʻzbek xalqining ulugʻ shoiri Navoiy”, “Navoiy va zamonamiz”, “Mardlik, muhabbat va doʻstlik dostoni”, “Fathod va Shirin” haqida. “Oʻzbek xalqining oʻlmas shoiri”, “Muhammad Amin Muqimiy” kabi maqolalari uning etuk tadqiqotchi sifatida tanilganligi. Shoir dostonlari. Hamid Olimjon – mohir tajimon. Abdulla Qahhor ijodiy yoʻlidagi dastlabki mashqlar. “Moston”, “Koʻr koʻzning ochilishi” asarlarida hayotni realistik tasvirlash tamoyillarining qaror topishi. “Oʻgʻri”, “Mayiz emagan xotin” kabi hikoyalarda chinakam realistik asarlar yaratish pallasi boshlanganligi. Abdulla Qahhor hikoyalarda oʻtmishdagi mehnatkash xalq hayotining fojivaviy manzaralari gavdalantirilishi. 30-yillarda tumushidagi ijtimoiy nobopliklarni, axloqiy tubanlik, maʼnaviy qashshoqlik singari ilatlarni hajv bilan tasvirlarga intilishi. Adib ijodida urush davri vogelarning aks etishi. Adib ijodi tanqidchilik nigohida.

### 5-mavzu. Maqsud Shayxzoda, Sharof Rashidov

Ijodkor voyaga eigan oilaviy-ijodiy muhit. 1928-yilda Toshkentga koʻchib kelishi va umrining oxirigacha ijodiy faoliyatining Oʻzbekiston bilan bogʻlanishi. Shoirning lirik dostonlari. Urush yillarida nashr qilingan “Kurash nechun?”, “Yang va qoʻshiq”, “Koʻngli deydiki”, rus tilidagi “Saaz”, “Grozoyu rojdyonsa”, “Sendse govorit” kabi toʻplamlari. “Jaloliddin Manguberdi” dramasiidagi boshi qahramon tilidan yangragan misralar vositasida adib ijodiga xos eng etakchi fazilalar. “Toshkentnoma” nomli dostoni. “Mirzo Ulugʻbek” tragediyasida Mirzo Ulugʻbek hayotining soʻnggi yillari jonlantirilgan.

### 7-mavzu. Mirtemir poeziyasi. Zulfiya ijodi. Asqad Muxtor ijodi.

Mirtemirning oʻzbek tilidagi sochma sheʼrlari. Uning “Shuʼlalar qoʻynida” nomli toʻplamida Vatn goʻzalligi, mehnat gashli, yosh zamonadoshlarining maʼnaviy dunyosi asosiy mavzu sifatida taramun etilgan. Shoirning “Oʻylar”, “Qizgʻaldoq”, “Qoya”, “Mening bolaligim”, “Bogʻimning chechaklari”,

“Lolazoridan oʻlkanda”, “Quyoshning zabti” kabi lirik sheʼrlari chuqur umumlashtirilgan boy boʻlib, 30-yillarning ikkinchi yarmidagi oʻzbek lirikasiga qoʻshilgan katta hissa hisoblanadi. Urush yillarida yaratilgan “Vaboʻ”, “Oʻch”, “Bu mening vatanim”, “Ona shahar”, “Dengiz boʻyida”, “Mard yigit, yorning boʻlay”, “Tilloʻ”, 6“Koʻzlarim yoʻlingda” kabi sheʼrlarida dushmanga nafrat, vatanga sadogʻat hislari jangovar ruhada ifodalangan.

**Zulfiya ijodi.** Shoiraning dastlabki ijodi. Zulfiyaning sevgi-sadogʻat, hijron, oʻlim, ona, tong, dunyo, umr, hayot, yurtdoshlari jasorati, firodesi mavzuidagi sheʼrlari. Urush yillarida Zulfiyaning ijodi yanada mazmundorlik, badiiy jihatdan mukammallik kash etadi. Shoir “Uni Fathod der edilar” (1943), “Hijron kunlarida” (1944), rus tilida “Vernost” toʻplamlarini nashr ettirdi. Bular orasida “Qoʻlimda qurol-u usimda shine!”, “Gullar ochilganda”, “Palak”, “Oʻgʻlim, sira boʻlmaydi urush” sheʼrlari, ayniqsa, diqqatga sazovoridir. Uning Hindiston safari natijasi boʻlgan “Mushoira” asari juda katta shuhrat qozondi. “Mushoira”da Zulfiya unuminsoni gʻoyalarni, Sharq xalqlarining “bir ulkan qalb boʻlib birlashtir”, “haqiqat va nurga intilishi”ni taʼsirchan shaklda ifodalaydi. Shoiria dostonlari.

Asqad Muxtorning dastlabki ijodi. Shoirning “99 miniatyura”, “Quyosh belanchagi”, “Sizga ayta soʻzim”, “Yillarim” kabi kitoblardagi sheʼrlarida zamonu inson haqidagi oʻylar tasviri. “Poʻlat quyuvchi”, “Sheralning doʻsti Barhayot” dostonlari, “Daryolar tutashgan joyda” qissasida hayot tasviri. Asqad Muxtor nasri. 60-yillarda yaratilgan “Tugʻilish” (1961), “Davr mening taqdirimda” (1964) kabi romanlarida Asqad Muxtor oʻsha zamonlarning dolzarb mavzularini va muammolarini qalamga olishga hamda oʻziga xos yoʻsinda yoritishga intilgan edi. “Qadrdon dalalar”, “Hukm”, nomli qissalari mamlakatimizda kolxoz harpo etish davri hayoti tasviriga bagʻishlangan. “Sud” asari oʻzbek adabiyotidagi detektiv janring, “Gʻildirak” qissalari, “Choʻl burguti”, “Choʻl shamollari” turkum hikoyalari, “Hindcha oʻyin”, “Kuchukcha”, “Kolbasa qori”, “Oʻrik donla” hajviy asarlarining kishilar sevib oʻqiydigan namunalari. “Koʻklam chechaklari”, “Xazina”, “Iqbol chiroqlari”, “Tunalar” kabi hikoyalarda lirizm koʻzga tashlanadi. “Ufq” romani yozuvchi ijodiy yoʻlidagi ikkinchi bosqichning eng katta yutugʻi boʻldi. Bu roman trilogiya boʻlib, “Qirgʻ besh kun”, “Hijron kunlari”, “Ufq boʻsagʻasida” nomli qismlardan iborat. “Jimjitlik” romani turgʻunlik yillarini kengroq va koʻp tomonlama qamrab olganligi, umumiy ruhini ochib berishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

### 8-mavzu. Odil Yozubov, Pirmuqol Qodirov nasri. Oʻtkir Hoshimov ijodi

Yozuvchi oʻzbek romani poetikasiga koʻpgina yangiliklar olib kirdi. Xususan, u oʻzbek tarixiy-pollifonik romaniga asos soldi, jinoysatiz detektiv shakldagi asarning oʻziga xos namunasini yaratdi. Bolalik taassurotlari, hayotda koʻrgan-kechirgan, koʻnglida chuqur iz qoldirgan voqea-hodisalar “Er boshiga ish tusha...”, “Muzqaymoq”, “Diyonat”, “Oqqushlar, oppoq qushlar”, “Izlayman”, “Adolat manzili”, “Qaydasan, Moriko?” asarlarida aks etdi. Odil Yozubovning oltita dramasi boʻlib, shulardan beshitasi oʻsha zaifgina pesalar qatoriga kiradi. Bu dramalari “Chin muhabbat”, “Olina gullaganda”, “Yurak yommoʻgi kerak”,

“Aytisam tilim kuyadi, aytmasam dilim...” va “Fotihni Muzaffar yoxud bir parivash asiri” (“Avlodlarga vasiyat”) deb nomlangan. Adibning “Muqaddas” qissasidan tortib, “Diyonat” va “Osiy banda” romanlariga qadar yaratilgan e’tiborga sazovor deyarli barcha asarlari insoniy burch va vijdon muammosi tasvirlanadi. Pirmingul Qodirov “Uch ildiz”, “Qora ko’zlar”, “Erk”, “Meros” kabi asarlari, ko’plab publitsistik maqolalari, tarixiy mavzudagi “Yulduzli tunlar” (“Bobur”), “Avlodlar dovoni” (“Humoyun va Akbar”) romanlari bilan xalqimizning e’tiborini qozondi. Olim sifatida “O’ylar” kitobiga kirgan talay qaydlari, “Dil va til”, “Xalq tili va realistik proza”, “Til va e’l” tadqiqotlari uning yuksak tanqichilik iste’dodiga ega ekanligidan dalolat beradi. “Qora ko’zlar” asari yozuvchi ijodida olg’a tashlangan qadam, o’zbek romanohligida muhim hodisa bo’ldi. Bu roman 60 - yillar boshidagi qishloq hayoti manzaralarini, tumush qiyinchiliklarini, murakkabliklarini, ziddiyatlarini to’yi-rost ko’rsaganligi bilan ajralib turadi.

### 9-mavzu. Erkin Vohidov poeziyasi.

#### Abdulla Oripov she’riyati va dostonlari. Rauf Parfi ijodi

Erkin Vohidovning sharq mumtoz adabiyoti an’analari ruhida yozilgan, zamonodoshlari ma’naviy dunyosini ochib beruvchi g’azallari, yuksak insoniylik ruhi bilan yo’g’rilgan she’rlari, urush fojialari haqida bals etuvchi «Nido», falsafiy mushohadalarga boy “Ruhlar isyon” dostonlari, tomoshahnlarni xushnud etgan “Oltin devor” komediyasi, shuningdek, I.Gyote, S.Yesenin, A.Blok, M.Svaylov, A.Tvardovskiydan qilgan tarjimalari ma’naviy hayotimizda ulkan vogue bo’ldi. Uning “O’zbekim” qasidasi xalqimizning milliy iftixorini, o’tmishiyu tarixini va hozirgi zamonidagi buyuk yutuqlarini go’zal hamda favqulodda ta’sirchan shaklda ifodalovchi ginn sifatida baholandi. “Mifti yulduz” to’plami shoirning haqiqiy ijod yo’liga kirganligidan dalolat beruvchi kitob sifatida maydonga kelgan. Shoir Abdulla Oripov “Mifti yulduz” she’riy to’plamidan keyin yana ko’plab mazmunдор kitoblar e’lon qildi. “Ko’zlarim yo’lingda” (1966), “Onajon” (1969), “Chashma”, “Ruhim” (1971), “O’zbekiston” (1972), “Hayrat” (1974), “Yurtim shamoli” (1976), “Najot gal’asi” (1980), “Yillar amoni” (1984), “Ishonch ko’priklari” (1989), “Munjo’l” (1992), “Dunyoy” (1995), “Haj” daf’ari (1995), “Saylamna” (1996), to’rt jildlik “To’liq asarlar to’plami” (2001) shular jumlasidandir.

Rauf Parfiyning “Karvon yo’li” (1968), “Aks-sado” (1970), “Tasvir” (1973), “Xotiro” (1975), “Ko’zlar” (1977), “Qaytish” (1978), “Sabr daraxti” (1986), “Sukunat” (1989) kabi o’nlab sara she’riy to’plamlari hosil bo’ldi. Shoir tinimsiz mehnat qilishda davom etadi va o’zida bir-biridan mazmunдор, go’zal she’rlarni mujassamlashtiruvchi “Ona Turkiston” (1992), “Turkiston ruhi” (1993), “Tavba” (2000), “So’nggi vido” (2006) kitoblari chop etiladi.

#### 10-mavzu. Shukur Xolmirzaev nasri. Shavkat Rahmon she’riyati

**Shukur Xolmirzaevning** 60-yillarning boshida birin-kekin “To’liqlilar”, “O’n sakkizga kimmagan kim bor?” qissalarini va “Hayot abadiy” nomli hikoyalari to’plamini e’lon qiladi. “Shudring tushgan bedazor”, “Cho’loq tuma”, “Podachi”,

“Ko’k dengiz”, “Xorun ar-Rashid”, “Qadimda bo’lgan ekan”, “Tabassum”, “Ustoz”, “Farzand” kabi hikoyalarda Surxon vohasining kaloritli yorqin sezilib turadi. “Arpali qishlog’ida”, “O’lis yulduz ostida”, “Miftiq otlar”, “Kimsasiz hovli”, “Ov” kabi hikoyalari, “So’nggi bekat”, “Qil ko’priklari”, “Olabo’ji” romanlarida bu kolortirni aniq sezish mumkin.

Shavkat Rahmon Toshkeniga keladi va bir qator nashriyotlarda muharrirlik qiladi. Deyarli hamisha qizg’in ijod bilan mashg’ul bo’lgan talabchan shoir shu yillarda “Rangin labzalar” (1978), “Ochiq kunlar” (1984), “Gullayotgan tosh” (1985), “Uyg’oq tog’lar” (1986), “Hulvo” (1987) singari kitoblar chop ettiradi. Shavkat Rahmon 1979 yilda atog’li ispan shoiri Federiko Garsia Lorkea she’rlaridan iborat kitobni rus tilidan o’zbekchaga ag’darib, “Saylamna” nomi bilan chop ettiradi.

### III. 1 Amaliy mashg’ulotlar bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg’ulot talabalarini Yangi o’zbek adabiyotiga doir ma’lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni adabiy asarni nazariy jihatdan tahlil va talqin qilishga yo’naltiradi. Talabalar to’plagan bilimlarini dars vaqtda munozara yoki ma’ruza ko’rinishida himoya qiladi. Amaliy mashg’ulotlarda talabalar Yangi o’zbek adabiyoti fanining o’ziga xos nazariy xususiyatlarini, badiiy asar shakli va mazmuniga doir ilmiy masalalarni o’rganadilar.

#### “Yangi o’zbek adabiyoti” bo’yicha amaliy mashg’ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. G’afur G’ulom nasri. Shoir she’riyatida falsafiy teranlik va badiiy mukammallik.
2. Oybek she’riyati. “Qurtlug’ qon” romanida milliy ozodlik motivlarining badiiy talqini.
3. Abdulla Qahhorning qissa va romanlari. “Sarob” romanida davr va shaxs tasviri.
4. Hamid Olimjon va Zulfiya ijodi
5. Magsud Shayxzoda ijodi. “Mirzo Ulug’bek” tragediyasida shaxs fojiasi talqini.
6. Mirtemir va Asqad Muxtor she’riyati.
7. “Ufq” trilogiyasida zamon va inson tarixiy hayotining haqqoniy tasviri. Trilogiyaning badiiy qiymati.
8. Odil Yodubov romanlarida tarixiylik ifodasi. Davr va shaxs fojiasi.
9. Pirmingul Qodirovning tarixiy romanlari.

10. Erkin Vohidovning "Yoshlik devoni"dagi lirik qahramon

**IV. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**Seminar mashg'uloti** talabalarni Yangi o'zbek adabiyotiga doir ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni adabiy asarni nazariy jihatdan tahlil va talqin qilishga yo'naltiradi. Talabalar to'plagan bilimlarini dars vaqtida munozara yoki ma'ruza ko'rinishida himoya qiladi. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar Yangi o'zbek adabiyoti fanining o'ziga xos nazariy xususiyatlarini, badiiy asar shakli va mazmuniga doir ilmiy masalalarni o'rganadilar.

**"Yangi o'zbek adabiyoti" bo'yicha seminar mashg'uloti amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Usmon Nosir lirikasi poetikasi
2. A.Muxtorning "Chinor" romani tahlili.
3. Shukur Xolmirzayev hikoyalari tahlili.
4. O'lmas Umarbekov asarlari tahlili
5. Abdulla Oripovning ilk she'rlari haqida.
6. Abdulla Oripov dramalari. "Jannatga yo'l" dramatik dostonida falsafiylik va badiiylik.
7. O'tkir Hoshimovning sevgi qissalari
8. Shukur Xolmirzayev, Tog'ay Murod asarlari tahlili
9. Rauf Parfi, Shavkat Rahmon ijodida metafora.
10. XX asr o'zbek bolalar adabiyoti

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

**Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

**Mustaqil ish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya qilinadi:**

1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafigidullov O. XX asr ўzbek adabiyoti tarixi. Oliy ўquv yurtlari uchun darslik. - T., O'qituvchi, 1999.
2. Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. - T., O'qituvchi,, 2019.
3. Normatov U. Yangi o'zbek adabiyoti. O'quv qo'llanma. - T. : Universitet. 2007.
4. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. T.: Yangu asr avlodi. 2005.
5. Болтабоев Н. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992.
6. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.
7. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Т.: Янги аср авлоди, 2006.
8. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: Ўзбекистон, 2008.
9. Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.
10. Normatov U. Umiddahsh tamoyillar. – To'shkent: Ma'naviyat, 2000.
11. Normatov U. Ijod se'xri. – To'shkent: Sharq, 2007.
12. Normatov U. Ijodkorning dahlsiz dun'esi. – To'shkent: MUMTOZ SO'Z, 2008.
13. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – To'shkent: Sharq, 2007.
14. Rasulova U. Hozirgi adabiy jarayon. Mumtoz so'z, 2014.
15. Sharafigidullov O. Ijodni anglash bahri. – To'shkent: Sharq 2004.
16. Xoldorov D. Ijod mohiyati – uslub xosiyati. – To'shkent: Turon zamin ziyo 2017.
17. Xoldorov D. Hozirgi adabiy jarayon: o'zbek qissalari uslubi. – To'shkent: Nodirabegim, 2020.
18. Xamdam U. Yangi ўzbek she'riyati. T.: Adib. 2012
19. Xamdam U. Yangilani shaxsiyati. –T.: Yangi asr avlodi, 2007.
20. R.To'laboyeva. Xudoyberdi To'xtaboyev romanlarida badiiy psixologizm. – To'shkent: Nurafshon-buznes, 2020.
21. Z.Suvonov. Tog'ay Murod nasri poetikasi. To'shkent: Nodirabegim, 2020.

**Izoh:** Tavsiya qilingan mazkur mavzulardan mustaqil ta'lim uchun uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish mumkin.

3. **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- "Yangi o'zbek adabiyoti" fani dasturi Davlat ta'lim standartlari, namunaviy dasturlarga qo'yiladigan ilmiy-metodik talablar asosida shakllantirilgan. "Yangi o'zbek adabiyoti" fani bo'yicha Oliy adabiyot kursi talabalari adabiyotshunoslik predmeti va adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, adabiyotshunoslikning boshqa

	<p>fanlar bilan aloqasi, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid, adabiy turlar va janrlar, ijodiy uslublar va yo'nalish, oqimlar, badiiy adabiyotning o'ziga xosligi <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak.</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ushbu fan yuzasidan magistrant lirik, epik, dramatik janrlar, XX asr namoyandalari vakillari, ularning hayoti, ijodiy faoliyati haqida bilishi, Yangi o'zbek adabiyoti haqida keng qamrovli tahlil qila olishi, ushbu davrda yaratilgan asarlarni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi lozim.</i></li> <li>• “Yangi o'zbek adabiyoti” fanidan talaba adabiy asarlarning janrini farqlay olish, adabiy matnni asl manbasi bilan solishtira bilish, asar syujetini tarkibiy qismlarga ajratish, matndagi muallif va qahramon nutqini farqlash, badiiy asarni nazariy jihatdan tahlil qila bilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</i></li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• “Yangi o'zbek adabiyoti” fanini o'zlashtirishda o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.</li> <li>• Shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta'lim sifatida o'zlashtirish uchun beriladi.</li> <li>• Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi.</li> <li>• Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning ilg'or metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o'tkaziladi.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafigididinov O. XX asr ўzbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - T., O'qituvchi, 1999.</li> <li>2. Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. - T., O'qituvchi, 2019.</li> <li>3. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. T.: Yangu asr avlodi. 2005.</li> <li>5. Quvvatova D., O'roqova N. Yangi o'zbek adabiyoti. –Buxoro, Durdona, 2022.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>5. Болтабоев Н. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992.</li> <li>6. Журакулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.</li> </ol>

	<ol style="list-style-type: none"> <li>7. Ёўлдошев Қ. Ёник сўз. –Т.: Янги аср авлоди, 2006.</li> <li>8. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: Ўзбекистон, 2008.</li> <li>9. Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.</li> <li>10. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000.</li> <li>11. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарк, 2007.</li> <li>12. Норматов У. Ижодкорнинг дахлсиз дунёси. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2008.</li> <li>13. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарк, 2007.</li> <li>14. Rasulova U. Hozirgi adabiy jarayon. Mumtoz so'z, 2014.</li> <li>15. Содиқ С. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. – Тошкент: Шарк, 2005.</li> <li>16. Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009.</li> <li>17. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарк 2004.</li> <li>18. Холдоров Д. Ижод моҳияти – услуб хосияти. – Тошкент: Turon zamin ziyoi 2017.</li> <li>19. Xoldorov D. Hozirgi adabiy jarayon: o'zbek qissalari uslubi. – Toshkent: Nodirabegim, 2020.</li> <li>20. Куронов Д. Томчида кўёш акси // Шарк юлдузи. – 1991. – №12. – Б.120-133.</li> <li>21. Куронов Д. Икки роман – икки талкин // Ёшлик. – 1991. – №6. – Б.28-32.</li> <li>22. Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърляти. Т.: Адиб. 2012</li> <li>23. Ҳамдам У. Янгиляниш эҳтиёжи. –Т.: Янги аср авлоди, 2007.</li> <li>24.Қахрамонов Қ. Адабий танқид: янгиляниш жараёнлари. Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009.</li> <li>25. R.To'laboyeva. Xudoyberdi To'xtaboyev romanlarida badiiy psixologizm. – Toshkent: Nurafshon-buzines, 2020.</li> <li>26. Z.Suvonov. Tog'ay Murod nasri poetikasi. Toshkent: Nodirabegim, 2020.</li> </ol>
	<p><b>Elektron manbalar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>30. <a href="http://www.literature.uz">www.literature.uz</a></li> <li>31. <a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a></li> <li>32. <a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a></li> <li>33. <a href="http://www.ziyouz.com">www.ziyouz.com</a></li> <li>34. <a href="http://www.turonlib.uz">www.turonlib.uz</a></li> </ol>
7.	<p><b>Buxoro davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan</b> (BuxDU Ilmiy kengashining 2023-yil 29-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi).</p>

Fan/ modul uchun mas'ul:	
8. Quvvatova D.X. – O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori.	
Taqrizchilar:	
9. Hasanov Sh.A. – Samarqand davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori. G'.N.Murodov – Buxoro davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori. <i>F. Murodov</i>	<i>Sh. Hasanov</i>